



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI HOKIMINING
QARORI

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-00-15, surxon@exat.uz, gov@sdv.uz

2023 - yil 18 - yanvar

7-8-0-Q/23

Surxondaryo viloyati hokimligi

**Surxondaryo viloyatida 2023-yilda davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik
uchun ijara to‘lovining eng kam stavkalarini tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6,25-moddalari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Davlat mulkini ijaraga berish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2009-yil 8-apreldagi 102-sonli qaroriga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan kiritilgan hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi bilan 2022-yil 30-dekabrda kelishilgan Surxondaryo viloyatida 2023-yilda viloyatda davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun 1 kv.metr maydonga ijara to‘lovining eng kam stavkalari 1-ilovaga muvofiq;

2023-yilda davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun to‘lanadigan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga qo‘llaniladigan hududiy zonalar bo‘yicha koeffitsiyentlari 2-ilovaga muvofiq;

2023-yilda davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun to‘lanadigan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar va ijara to‘lovlarini hisoblash tartibi 3-ilovaga muvofiq;

Radio, uyali peydjning aloqa antennalari (texnik uskunalari) o'rnatilganda foydalaniladigan maydon uchun ijara haqi to'lovlari hisoblanish tartibi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Bo'sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazi Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi (Y.Namozov) qisqa muddatda viloyatdagi davlat tasarrufida bo'lgan ko'chmas mulk obyektlarini ijaraga berish yuzasidan avval tuzilgan ijara shartnomalariga mazkur qaror talablaridan kelib chiqib, tegishli o'zgartirishlar kiritilsin.

3. Davlat mulkini balansda saqlovchi davlat boshqaruvi va mahalliy davlat hokimiyati organlari foydalanilmasdan turgan davlat mulki to'g'risidagi ma'lumotlarni va ijaraga berilayotgan mol-mulkning tiklanish qiymati to'g'risidagi axborotni O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi huzuridagi Bo'sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazi Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasiga o'z vaqtida, to'liq taqdim qilinishini ta'minlasin.

4. Davlat mulkini ijara shartnomasi tuzmasdan ijaraga berish, ijara shartnomasida ijaraga berilgan mulkning parametrlari va sonini ataylab noto'g'ri qayd etilganligi, natijada ijara to'lovining yashirilishiga olib kelganligi holati aniqlangan taqdirda, foydalanganlik davri uchun ijara to'lovini ikki barobar miqdorida belgilangan tartibda balansda saqlovchidan undirilishi va undirilgan summaning 50 (ellik) foizi tegishli jamg'armaga, 50 (ellik) foizi Bo'sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazi Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi ixtiyoriga o'tkazilishi belgilab qo'yilsin.

5. Viloyat hududida 2023-yilda davlat mulki bo'lgan binolar va xonalarda ijara asosida joylashgan budjet tashkilotlari uchun ijara to'lovining nol stavkasi belgilansin.

6. Viloyat Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi, viloyat teleradiokompaniyasi, "Surxon tongi" va "Zarya Surxana" gazetalariga Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy boshqarmasi hamda Bo'sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazi Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasining takliflari asosida viloyatdagi bo'sh turgan, ijaraga beriladigan davlat tasarrufidagi obyektlar ro'yxatini ommaviy axborot vositalari orqali bepul yoritib borish tavsiya etilsin.

7. Viloyat hokimining 2022-yil 4-fevraldagi 93-8-0-Q/22-sonli qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

8. Mazkur qaror "Surxon tongi" va "Zarya Surxana" gazetalarida rasman

e'lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

9. Ushbu qaror rasman e'lon qilingan kundan kuchga kiradi.

10. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining o'rinbosari A.Oripov zimmasiga yuklansin.

**Surxondaryo viloyat hokimi
vazifasini bajaruvchi**



U.B.Qosimov

Surxondaryo viloyat hokimining
2023 yil 18 yanvardagi
7-8-0-Q/23-son qaroriga
1-ilova

**Surxondaryo viloyatida 2023-yil davomida davlat ko'chmas mulkidan
foydalanlik uchun 1 kv.metr maydonga ijara to'lovining eng kam stavkalari**

№	Ijaraga beriladigan maydonlardan foydalanish maqsadlari	2023-yilda 1 kv.m. maydon uchun yillik eng kam ijara to'lovi stavkalari (QQS bilan birga)	
		Termiz shahar	Tumanlar
Ishlab chiqarish			
1	Yoqilg'ichilik ishlab chiqarish	11 900	8 700
2	Kimyoviy ishlab chiqarish	11 900	8 700
3	Neft-kimyo sanoati	11 900	8 700
4	Mashinasozlik va asbobsozlik sanoati	11 900	8 700
5	Hisoblash texnikalarini ishlab chiqarish	11 900	8 700
6	Traktorsozlik va qishloq xo'jaligi mashinasozligi	9 700	7 200
7	Yengil va oziq-ovqat sanoati mashinasozligi hamda maishiy anjomlar sanoati	11 900	7 200
8	Sanitariya va gaz uskunalari va mahsulotlarini ishlab chiqarish	11 900	8 700
9	Metall konstruksiyalar va mahsulotlar sanoati (tokarlik xizmati)	11 900	8 700
10	Mashina va uskunalarni ta'mirlash	11 900	8 700
11	Mashinasozlikning boshqa tarmoqlari	11 900	8 700
12	Ichimliklar ishlab chiqarish	11 900	8 700
13	Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	11 900	8 700
14	Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	11 900	8 700
15	Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	37 700	28 300
Qurilish sanoati			
16	Qurilish, yo'l va kommunal muhandislik	9 700	7 200
17	Deraza va eshiklar, mebel ishlab chiqarish sanoati (yo'g'ochdan)	35 900	26 600
18	Deraza, eshik va mebellar ishlab chiqarish (plastik, alyumin va MDFdan)	63 000	37 300
19	Loyiha, loyiha-qidiruv tashkilotlari	11 900	8 700
20	Shlakoblok ishlab chiqarish	11 600	8700
21	Polietilen mahsulotlari ishlab chiqarish	37 700	28 300

22	Boshqa qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish	26 700	20 050
O'rmon, yog'ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog'oz sanoati			
23	Yog'och mahsulotlarini tayyorlash sanoati	11 900	8 700
24	Yog'ochni qayta ishlash sanoati	11 900	8 700
25	Sellyuloza-qog'oz mahsulotlari sanoati	11 900	8 700
Yengil sanoat			
26	To'qimachilik sanoati	11 900	8 700
27	Tikuvchilik sanoati	11 900	8 700
28	Charm, mo'yna va poyabzal mahsulotlari sanoati	11 900	8 700
29	Yengil sanoatning boshqa ishlab chiqarish turlari	11 900	8 700
Oziq-ovqat sanoati			
30	Oziq-ovqat sanoati (baliq, go'sht, yog'-pishloq va sut mahsulotlari ishlab chiqarishdan tashqari)	11 900	8 700
31	Go'sht va sut mahsulotlari sanoati	11 900	8 700
32	Sut mahsulotlari sanoati	23 300	17 400
33	Baliq mahsulotlari sanoati	11 900	8 700
34	Tegirmonchilik sanoati	11 900	8 700
35	Kombikorm (omuxta yem) sanoati	9 700	7 200
36	Qandolat mahsulotlarini ishlab chiqarish	11 900	8 700
37	Oziq-ovqat sanoatining boshqa tarmoqlari	11 900	8 700
Sanoatning boshqa tarmoqlari			
38	Tibbiyot sanoati	11 900	8 700
39	Poligrafiya sanoati	29 200	25 000
40	Kiyimlarni va gazlamalardan tayyorlangan buyumlarni kimyoviy tozalash, bo'yash, yuvish va matolarni qayta ishlash	14 600	10 600
Qishloq xo'jaligi			
41	O'simlikshunoslik (shu jumladan, issiqxona xo'jaligi) 1 gektar yer maydoni uchun	4 798 000	3 559 100
42	Issiqxona xo'jaligi	9 000	8 000
43	Chorvachilik va parrandachilik	5 700	4 300
44	Baliqchilik (shu jumladan, sun'iy maydon) 1 gektar yer maydoni uchun	4 798 000	3 559 100
45	Asalarichilik 1 gektar yer maydoni uchun	3 119 000	2 313 600
46	Veterinariya xizmatlari	11 900	8 700
47	Qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi boshqa tashkilotlar	11 900	8 700
48	O'rmon xo'jaligi (shu jumladan, bog'lar) 1 gektar yer maydoni uchun	4 798 000	3 559 100
Transport va aloqa			

49	Transport infratuzilmalari (avtopark, taksopark, avtomobil to'xtash joylari va garaj)	11 900	8 700
50	Transport infratuzilmalari (jarima maydonlari)	3 000	2 400
51	Avtomobillarni yuvish	38 500	25 100
52	Avtomobillarga yonilg'i quyish (benzin, dizel)	38 500	32 400
53	Avtomobillarga yonilg'i quyish (gaz quyish shoxobchalari)	46 800	35 100
54	Elektromobillarni quvvatlash shoxobchasi	20 400	15 300
55	Aholi buyurtmasiga asosan yuk tashish va boshqa transport-ekspeditsiya xizmatlari	21 620	16 200
56	Pochta aloqasi	11 900	8 700
57	Kuryerlik aloqasi	24 000	17 700
58	Elektr-simli aloqa	24 000	17 700
59	Radio, uyali aloqa va peydjer aloqasi (inshootlarni hisobga olgan holda hudud doirasida)	100 800	74 800
Savdo va umumiy ovqatlanish			
60	Ulgurji savdo	33 600	25 000
61	Mahsulotlarni (xizmatlarni) qismlab savdo faoliyatini amalga oshiruvchi ulgurji savdo bozorlaridagi savdo do'konlari	86 300	63 900
62	Chakana savdo	33 600	25 000
63	Umumiy ovqatlanish	33 600	25 000
64	Yarim tayyor oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash va sotish (fast fud)	52 600	36 100
65	Kitob do'konlari	4 700	3 600
66	Lombardlar	43 400	32 200
Xizmat ko'rsatish			
67	Madaniy-maishiy maqsadlardagi hamda xo'jalik buyumlarini ijaraga berish joylari	33 600	25 000
68	Internet va kompyuter tarmoqlari orqali xizmatlar ko'rsatish	33 600	25 000
69	Kompyuter o'yinlarini tashkil etish	50 400	37 500
70	Ko'chmas mulklar bilan bog'liq munosabatlar	33 600	25 000
71	Reklama, ko'rgazmalar xizmatlari	33 600	25 000
72	Geologiya va tabiiy boyliklarni qidirish, geodeziya va gidrometeorologiya xizmatlari	60 000	44 300
73	Mehmonxona xo'jaligi	38 400	28 400
74	Umumiy yashash joylari	29 900	21 700
75	Maishiy xizmatning noishlab chiqarish turlari	19 320	14 260
76	Sartaroshxona, fotosalon, modalar atelyesi, poyabzallarni ta'mirlash ustaxonasi	28 900	21 700
77	Hammomlar	57 800	42 800
78	Saunalar va basseynlar	115 200	85 500

79	Paxta va jun tozalash hamda titish xizmatlari	19 300	14 200
Sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy ta'minot			
80	Sog'liqni saqlash	24 000	17 700
81	Tibbiy diagnostika xizmati (shu jumladan, laboratoriya)	44 200	33 200
82	Sayyohlik va dam olishni tashkil etish	24 000	17 700
83	Fitobar	16 600	12 300
84	Madaniy ko'ngilochar markazlar (bilyard, o'yin avtomatlari, diskoteka va boshqalar)	38 400	28 400
85	Jismoniy tarbiya va sport	11 900	8 700
86	Dorixonalar	19 300	14 200
87	Optika, tibbiyot anjomlari va jihozlar savdo do'konlari	40 400	22 500
88	Ijtimoiy-dorixonalar	17 100	11 500
Ta'lim			
89	Oliy va o'rta-maxsus ma'lumotli kadrlarni tayyorlash (o'quv kurslari bilan)	19 320	14 200
90	O'quv kurslarini tashkil etish	39 600	29 700
91	Ishchilar va xizmatchilarni tayyorlash va malakasini oshirish	15 065	11 615
92	Bolalar umumta'lim maktablari (nodavlat ta'lim muassasalari uchun)	9 700	7 245
93	Oliy va o'rta-maxsus ta'lim muassasalarida umumiy ovqatlanish	23 400	17 500
94	Umumiy o'rta ta'lim maktablarida umumiy ovqatlanish	11 900	8 700
95	Maktabgacha tarbiya muassasalari (nodavlat ta'lim muassasalari uchun)	8 500	6 600
96	Madaniyat va san'at	33 600	25 000
97	Ko'rgazmalar	25 900	20 100
98	Madaniyat va dam olish bog'lari	24 000	17 700
99	Botanika bog'lari va zooparklar	24 000	17 700
100	Televideniyealar va radioeshittirishlar, tahririyatlar	24 000	17 700
101	Kinostudiyalar, ovoz yozish studiyalari	38 400	28 405
102	Fan va ilmiy xizmatlar ko'rsatish	14 600	10 600
103	Avtomaktablar	21 300	12 600
Moliya-kredit faoliyati			
104	Moliya, kredit va pensiya ta'minoti (sug'urtalash va auditorlik faoliyatidan tashqari)	33 600	25 000
105	Auditorlik faoliyati	33 600	23 400
106	Marketing tadqiqotlari, tijorat, moliya va boshqaruv faoliyatlari bo'yicha maslahatxonalar	33 600	25 000
107	Bank faoliyati	33 600	25 000
Faoliyatning boshqa turlari			
108	Sug'urta va notarial xizmatlar	33 600	25 000

109	Sud va yuridik xizmat muassasalari	28 900	21 700
110	Advokatlar kollegiyasi va yuridik maslahatxonalar	28 900	21 700
111	Jamoatchilik birlashmalari	9 700	7 000
112	Omborxonalar	33 600	25 000
113	Davlat tashkilotlariga ofis	14 600	10 600
114	Xususiy tashkilotlarga ofis	52 600	39 100
115	Arxiv xizmati	14 600	8 900
116	Tahririyat va nashriyotlar	19 300	14 200
117	Metallolom va ikkilamchi qog'oz (latta) mahsulotlarini to'plash joylari	19 300	14 200
118	Turar joy-kommunal xo'jaliklari	19 300	14 200
119	Yengil avtomashinalar va boshqa turdagi transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish	38 400	28 400
120	Vulkanizatsiya, payvandlash, chilangarlik ishlarining barcha turlari	29 200	21 900
121	Laboratoriyalar	24 000	17 700
122	Turli xizmat turlari to'lovlari (paynet)	96 400	71 400
123	Madaniy meros obyektlari bino va inshootlarida joylashgan savdo do'konlari	52 600	39 100
124	Madaniy meros obyektlari bino va inshootlarida joylashgan umumiy ovqatlanish shoxobchalari	46 100	34 200
125	Hunarmandchilik turlari bo'yicha (yodgorlik majmualari yasash, misgarlik, o'ymakorlik, rassomchilik, do'ppido'zlik, telpak, cho'girma, chopon va h.k)	28 400	21 300
126	Avia kassalar (shu jumladan, temir yo'l, avtotransport va boshqalar)	52 600	39 100
127	Bankomatlar	480 800	356 600
128	Non-bulka mahsulotlari ishlab chiqarish	33 600	21 700

Izoh:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 30-iyundagi 07/10-41-sonli yig'ilish bayonnomasining 11-bandiga asosan qishloq joylardagi QVP qoshida tashkil etilgan barcha mulkchilik shaklidagi dorixona muassasalariga ijara to'lovining nol stavkasi qo'llaniladi.

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 22-noyabrdagi 02/1-74-sonli topshirig'iga asosan Ko'chmas davlat mulkidan foydalanganlik uchun to'lanadigan ijara to'lovining O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining savdo boshqarmalari tarkibida bo'lgan yopiq harbiy shaharlarda va uzoq bo'lgan garnizonlardagi bo'linmalariga nisbatan nol stavkada qo'llaniladi.

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 16-oktabrdagi “Yoshlar tadbirkorlik klasterlarini tashkil etishga doir tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 834-son qaroriga muvofiq, davlat mulki, shu jumladan, erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari hududida joylashgan davlat mulki obyektlari O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi a‘zosi bo‘lgan yosh tadbirkorlarga O‘zbekiston Yoshlar ittifoqining shahar va tuman kengashlari tavsiyanomasiga asosan 5 yildan ko‘p bo‘lmagan muddatga ijara to‘lovining nol stavkasi asosida beriladi.
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 16-avgustdagi 14/1-1959-sonli topshirig‘iga asosan 2018-yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligining tavsiyasiga asosan Olimpiya o‘yinlari g‘oliblari va sovrindorlariga xususiy sport muassasalarini tashkil etish uchun davlat mulki, shu jumladan, aholi kam joylashgan hududlardagi yer maydonlari ijara to‘lovining nol stavkasi asosida ajratiladi.
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 1-avgustdagi 609-20-sonli topshirig‘iga asosan, kelgusida Mudofaa vazirligi tomonidan vazirlik tizimidagi o‘z faoliyatini iqtisodiy mustaqillik, o‘zini o‘zi ta‘minlash va moliyalashtirish tamoyillari asosida amalga oshiradigan davlat unitar korxonalariga, shuningdek, vazirlikning boshqa tarkibiy bo‘linmalariga binolarni, inshootlarni, joylarni, asbob-uskunalarni, mebellarni va boshqa mol-mulkni ijara shartnomasi asosida vaqtinchalik foydalanishga berishda binolardan, inshootlardan, joylardan, asbob-uskunalardan, mebellardan va boshqa mol-mulkdan foydalanganlik uchun ijara to‘lovining nol stavkasi belgilanadi.
- Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim muassasalari va umumiy o‘rta ta‘lim maktablari hududi (ichkarisi)da joylashgan obyektlarni (balansida saqllovchi va ijaraga oluvchilarning xodimlari va/yoki ta‘lim oluvchilar uchun xizmat ko‘rsatadigan oshxona, savdo, maishiy xizmat ko‘rsatish va boshqa faoliyatlar bo‘yicha) ijara haqi hisoblashda yozgi ta‘til davri uchun oliy va o‘rta maxsus ta‘lim muassasalarida 2 (ikki) oy va umumiy o‘rta ta‘lim maktablari 3 (uch) oy muddatga ijara to‘lovlari chegirib beriladi. Ijaraga oluvchi tashabbusi bilan ijara haqi hisoblanishi mumkin.

Surxondaryo viloyat hokimining
2023 yil 18 yanvardagi
7-8-0-Q/23-son qaroriga
2-ilova

**2023-yilda davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun to'lanadigan
ijara to'lovining eng kam stavkalariga qo'llaniladigan hududiy zonalar
koeffitsiyentlari (Kz)**

T/r	Shahar va tumanlar nomi	Zonalar	Hududiy zonalar koeffitsiyenti
1.	Termiz shahar	shahar hududi bo'yicha	2,8
2.	Denov tumani	tuman markazi	2,8
		boshqa hududlari	2,5
3.	Jarqo'rg'on tumani	tuman markazi	2,5
		boshqa hududlari	2,2
4.	Qumqo'rg'on tumani	tuman markazi	2,5
		boshqa hududlari	2,2
5.	Angor tumani	tuman markazi	2,5
		boshqa hududlari	2,2
6.	Sariosiyo tumani	tuman markazi	2,5
		boshqa hududlari	2,2
7.	Uzun tumani	tuman markazi	2,5
		boshqa hududlari	2,2
8.	Sherobod tumani	tuman markazi	2,5
		boshqa hududlari	2,2
9.	Termiz tumani	tuman markazi	2,5
		boshqa hududlari	2,2
10.	Boysun tumani	tuman markazi	2,5
		boshqa hududlari	2,2
11.	Sho'rchi tumani	tuman markazi	2,5
		boshqa hududlari	2,2
12.	Oltinsoy tumani	tuman markazi	2,3
		boshqa hududlari	2,0
13.	Muzrabot tumani	tuman markazi	2,5
		boshqa hududlari	2,2
14.	Qiziriq tumani	tuman markazi	2,3
		boshqa hududlari	2,0

15.	Bandixon tumani	tuman markazi	2,3
		boshqa hududlari	2,0

Surxondaryo viloyat hokimining
2023 yil 18 yanvardagi
7-8-0-Q/23-son qaroriga
3-ilova

2023-yilda davlat ko‘chmas mulkidan foydalanganlik uchun to‘lanadigan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar va ijara to‘lovlarini hisoblash tartibi

A. Ko‘chmas mulkdan foydalanganlik uchun to‘lanadigan ijara

to‘lovini hisoblash tartibi:

Ko‘chmas mulklarning holati va qurilish turiga qarab qo‘llaniladigan koeffitsiyentlar:

1. Qurilish turi bo‘yicha koeffitsiyenti (Kk)

1.1. Qurilish turi bo‘yicha koeffitsiyent Kq

- alohida turgan bino	- 1,6
- binoning ichki qismidagi xonalar va taqab qurilgan	- 1,2
- binoning ustki qismi, cherdak	- 0,9
- yarim yerto‘la, yerto‘la	- 0,6
- betonlashtirilgan (asfaltlangan) inshootlar	- 1,6
- texnologik hududlar (maydon)da va betonlangan maydonga o‘rnatilgan uyali aloqa antennalari uchun	- 0,0

1.2. Tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsiyenti Kh

- yer maydoni va binoning ichki o‘tish yo‘laklari mavjud bo‘lganda	- 0,7
- texnologik hududlar (maydon)da va betonlangan maydonga o‘rnatilgan uyali aloqa antennalari uchun	- 0,2
- binoning ichki qismi (bino ichidagi xonalar) va binoning ustki qismi uchun (uyali aloqa antennalari uchun)	-0,0

1.3. Tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsiyenti Ko

- asosiy avtotransport yo‘llari bo‘ylab joylashganda	- 1,2
- ikkinchi darajali avtotransport yo‘llari bo‘ylab joylashganda	- 1,0
- radio, uyali aloqa va peydjing aloqa antennalari o‘rnatilganda	-1,1

Bino va inshootlar bo‘yicha ijara to‘lovini hisoblab chiqish quyidagi tarzda aniqlanadi:

$$T_s = E_s \times K_{z_x} (K_q + K_h + K_o)$$

Bunda:

- T_s** - bir yilga bir kv.m uchun ijara to'lovining tayanch stavkasi;
- E_s** - 1- ilovaga muvofiq faoliyat turiga ko'ra bir yilga bir kv.m uchun ijara to'lovining eng kam stavkasi;
- K_z** - hududiy zonalar koeffitsiyenti;
- K_q** - qurilish turi bo'yicha koeffitsiyenti;
- K_h** - tutashib ketgan hududdan foydalanish koeffitsiyenti;
- K_o** - tijorat maqsadlarida foydalanishda qulaylik koeffitsiyenti;

B. Asosiy vositalarga ijara to'lovlarini hisoblash tartibi

Ijara to'lovini hisoblash quyidagicha tartibda amalga oshiriladi:

$$K_b \times S_k \times O_k$$

Asosiy vositalarga nisbatan qo'llaniladigan koeffitsiyentlar:

- K_b** - Qayta baholangandan keyingi qiymati
- S_k - 0,30** - Soha koeffitsiyenti
- O_k - 1,4** - Oshirish koeffitsiyenti

Asosiy vositalarning holatidan qat'i nazar - 1,4 oshirish koeffitsiyentlari qo'llaniladi.

V. Avtotransport vositalarga ijara to'lovlarini hisoblash tartibi

Ijara to'lovini hisoblash quyidagicha tartibda amalga oshiriladi:

$$K_b \times S_k \times O_k$$

Avtotransport vositalariga nisbatan qo'llaniladigan koeffitsiyentlar:

- K_b** - Qayta baholangandan keyingi qiymati

Sk - 0,30	-	Soha koeffitsiyenti
Ok - 1,3	-	Oshirish koeffitsiyenti

Avtotransport vositasining holatidan qat'i nazar - 1,3 oshirish koeffitsiyentlari qo'llaniladi.

Qo'shimcha izoh:

Ijaraga olingan davlat mulklaridan foydalanish hamda ijara to'lovi summalarini belgilash tartibi, bajariladigan qo'shimcha xarajatlar, kommunal to'lovlarini va yer soliqlarini to'lash, ijara olingan davlat mulklarini kapital ta'mirlash, qo'shimchalar qilish ishlari uchun sarflangan xarajatlarni to'lash tartiblari to'g'risida;

a) bino-inshoot hamda asosiy vositalar va avtotransport vositalarini kapital ta'mirlash, qo'shimchalar kiritish ishlarini bajarish uchun sarflangan mablag'lar to'g'risidagi tegishli hujjatlar "Balans saqllovchi"ga taqdim etilganda va tomonlarning roziligi bilan, ushbu sarflangan mablag'lar summasi ijara shartnomasi bo'yicha "Balans saqllovchi"ga to'lanishi lozim bo'lgan ijara to'lovi summasidan chegirib qolinishi mumkin. Ijara vaqtida olingan mahsulot va foyda "Ijaraga oluvchi"ning mulki hisoblanadi;

b) belgilangan ijara to'lovi summasiga yer solig'i, kommunal xarajatlar (va boshqa turdagi xizmatlar) kiritilmagan bo'lib, ushbu xarajatlar bo'yicha "Ijaraga oluvchi" va "Balans saqllovchi" (mulk egasi) o'rtasida asosiy ijara shartnomasiga qo'shimcha alohida shartnoma tuziladi va ushbu shartnoma bo'yicha "Ijaraga oluvchi" mazkur xarajatlarni to'lash majburiyatini oladi;

d) Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari va umumiy o'rta ta'lim maktablari hududi (ichkarisi)da joylashgan obyektlarni (balansida saqllovchi va ijara oluvchilarning xodimlari va/yoki ta'lim oluvchilar uchun xizmat ko'rsatadigan oshxona, savdo, maishiy xizmat ko'rsatish va boshqa faoliyatlar bo'yicha) ijara haqi hisoblashda yozgi ta'til davri uchun oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida 2 (ikki) oy va umumiy o'rta ta'lim maktablarida 3 (uch) oy muddatga ijara to'lovlari chegirib beriladi. Ijaraga oluvchi tashabbusi bilan ijara haqi hisoblanishi mumkin;

e) O'qitishga ixtisoslashgan nodavlat harbiy maktablar, avtomobil maktablari uchun ushbu nodavlat maktab talaba va o'quvchilarga xizmat ko'rsatuvchi o'quv xonalari, oshxona, bufet va boshqa savdo, maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalariga ijara to'lovi o'quvchilarning yozgi ta'til davri uchun (yilning iyun,

iyul va avgust oylari) chegirib beriladi.

Surxondaryo viloyat hokimining
2023 yil 18 yanvardagi
7-8-0-Q/23-son qaroriga
4-ilova

Radio, uyali peydjning aloqa antennalari (texnik uskunalar) o'rnatilganda foydalaniladigan maydon uchun 2023-yilda ijara haqi to'lovlari hisoblanishi tartibi

1. Bino va inshootlarning yuqori qismi, cherdak, boloxona (shuningdek, davlat mulki bo'lgan inshootlarning yuqori qismi) qismlarida o'rnatilganda:

$$T_s = E_s * K_z * (K_q + K_h + K_o).$$

T_s – bir yilga bir kv.metr uchun ijara to'lovi tayanch stavkasi.

E_s - bir yilga bir kv.metr uchun eng kam stavka (umumiy ijara maydoni tortqich qoziqlarning umumiy perimetri bo'yicha hisoblanadi).

K_z – hududiy zona koeffitsiyenti.

K_q – 0,9

K_h – 0

K_o – 1,1

2. Bino va inshootlarga biriktirilgan, shuningdek, alohida ajratilgan maydonlarga (texnologik hududlar) o'rnatilganda:

$$T_s = E_s * K_z * (K_q + K_h + K_o).$$

T_s – bir yilga bir kv.metr uchun ijara to'lovi tayanch stavkasi.

E_s - bir yilga bir kv.metr uchun eng kam stavka (umumiy ijara maydoni tortqich qoziqlarning umumiy perimetri bo'yicha hisoblanadi).

K_z – hududiy zona koeffitsiyenti.

K_q – 0

K_h – 0,2

Ko – 1,1

3. Bino va inshootlarning ichki qismida joylashgan xonalarga texnik uskunalarni o'rnatilganda:

$$T_s = E_s * K_z * (K_q + K_h + K_o).$$

T_s – bir yilga bir kv.metr uchun ijara to'lovi tayanch stavkasi.

E_s - bir yilga bir kv.metr uchun eng kam stavka (umumiy ijara maydoni tortqich qoziqlarning umumiy perimetri bo'yicha hisoblanadi).

K_z – hududiy zona koeffitsiyenti.

K_q – 1,2

K_h – 0

K_o – 1,1